

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.30/30.09.2022.I.101.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXIMOVA DILNOZA DAVRONOVNA

**MINTAQA OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA
INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD)
on economical sciences**

Raximova Dilnoza Davronovna

Mintaqa oliy ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish3

Рахимова Дилноза Давроновна

Совершенствование механизма развития научно-исследовательской и инновационной деятельности региональных вузов27

Rakhimova Dilnoza Davronovna

Improving the mechanism for the development of research and innovation activities in regional universities.52

E’lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.30/30.09.2022.I.101.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

RAXIMOVA DILNOZA DAVRONOVNA

**MINTAQA OLIY TA'LIM MUASSASALARI ILMIY-TADQIQOT VA
INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMINI
TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi

AVTOREFERATI

Buxoro – 2024

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1. PhD/Iqt2812. raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)). Ilmiy kengash veb-sahifasi (reu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz)da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Azimov Bobir Fattohevich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponenlar:

Ro'zmetov Baxtiyar
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yavmutov Dilshod Shoyimardonqulovich
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan muhandislik-texnologiya instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.30/30.09.2022.I.101.04 raqamli Ilmiy kengashning 2024 yil «___» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99899) 704-79-72; faks: (+99865) 223-78-84; e-mail: info@bmti.uz

Dissertatsiya ishi bilan Buxoro muhandislik-texnologiya instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99899) 704-79-72; faks: (+99865) 223-78-84; e-mail: info@bmti.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2024-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2024-yil «___» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

A.B.Nizamov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sh.N.Xayitov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

B.N.Navruz-Zoda

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining hozirgi va uzoq muddatli istiqbol tendensiyalariga ko‘ra ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat iqtisodiy o‘shishning asosini tashkil etmoqda. Bugungi kunda “global ilmiy-tadqiqot ishlariga sarflangan xarajatlar 1,7-2 trillion AQSh dollariga yaqin rekord darajani tashkil qilmoqda. Ushbu xarajatlarning 80 foizi Janubiy Koreya, Isroil, AQSh, Xitoy, Yaponiya, Germaniya va Franiya kabi o‘nga yaqin davlatlar ulushiga to‘g‘ri keladi”¹. Hozirgi davrda jahonda ilm-fan yutuqlarini amaliyotga joriy etish hamda raqamli va innovatsion texnologiyalarga ko‘ra iqtisodiyotni sifat jihatdan jadal rivojlantirish dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda.

Jahonda ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan tadqiqotlar tarkibida mintaqalarda, ayniqsa hududiy muammolarni hal etishda oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini rivojlantirish mexanizmlariga bag‘ishlangan tadqiqotlarga ustuvor darajada qaralmoqda. Bu borada ilmiy-innovatsion faoliyatni tashkil etish va moliyalashtirishning metodologik-uslubiy asoslarini takomillashtirish, milliy va global darajadagi ilmiy tadqiqotlarni integratsiyalash mexanizmlarini takomillashtirish, tadqiqotlarni moliyalashtirishda natijalarni joriy qilishdan tushadigan foydada ulushini kengaytirish, ilmiy va innovatsion faoliyat va ishlab chiqarishni uyg‘un boshqarish, ilmiy-innovatsion faoliyatini takomillashtirish orqali ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash kabi mazulardagi tadqiqotlarga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida oliy ta‘limni sifat jihatdan tubdan takomillashtirish, ilg‘or ta‘lim texnologiyalariga asoslangan holda ta‘lim sifatini jahon standoriga ko‘ra yuksaltirish, zamonaviy bilim va mustaqil fikrlovchi malakali kadrlar tayyorlash, oliy ta‘lim tizimini raqamlashtirish kabi yo‘nalishlarda keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish faoliyatining uzviy bog‘liqligini nazarda tutuvchi «Universitet 3.0» konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish” kabi vazifalari belgilangan. Bu borada, ayniqsa mintaqalarda faoliyat olib borayotgan oliy ta‘lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatini samarali tashkil qilish mexanizmlarini takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni ustuvor darajada mintaqaviy muammolar yechimiga yo‘naltirish, ilmiy natijalarni tijoratlashtirishga ko‘ra tadqiqotlar moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirishga yo‘naltirilgan tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish maqsadga muvofiq.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston-2030 strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2022 yil 7 iyuldagi PF-161-son “2022-2026 yillarda O‘zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini

¹ <https://databank.worldbank.org/reports.aspx?dsid=2&series=GB.XPD.RSDV.GD.ZS>

tasdiqlash to'g'risida"gi farmonlari, 2024 yil 5 fevraldagi PQ-54-son "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2022 yil 18 maydagi PQ-246-son "Xalqaro reyting va indekslar bilan ishlashda ilmiy salohiyat hamda amaliy faoliyat uyg'unligini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2018 yil 16 iyuldagi PQ-3855-son "Ilmiy va ilmiy-texnikaviy faoliyat natijalarini tijoratlashtirish samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4 martdagi 128-son "O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Ilmiy-innovatsion faoliyat, uni tashkil etish, moliyalashtirish, boshqarish hamda u bilan bog'liq xorij tajribalari yuzasidan ilmiy-tadqiqotlar olib borgan ko'plab xorijlik iqtisodchi-olimlarni keltirish mumkin. Jumladan, Y.Shumpeter, F.Valenta, M.Porter, P.F.Druker, S.Friman, S. Metcalfe, X.Iskovis, R.Taplin, E.Garfield, P.Wangchuk, L.Guan, G.T.Papaskua, L.Vedantam, Y.Pierrakis va L.Collins, R.Davies² ilmiy-tadqiqot va asarlarida innovatsiya faoliyati talqin qilinishiga qaramay, mintaqalarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishida OTMlarning ilmiy-innovatsion faoliyati natijalarining ahamiyati to'liq yoritilmagan.

Shuningdek, MDH iqtisodchi olimlaridan A.M.Orexov, M.Ionov, N.B.Zavyalova va A.N.Golovina, E.Utkin, N.Morozova, A.Dinkin, E.A.Mazilov, V.M.Sergeev, E.S.Alekseenkova, V.D.Nechaev, A.E.Merkusheva, I.I.Ignatov, K.S.Grishenko, I.I. Dyakov, N.A.Tretyak, D.Yu. Busigin, M.Balixin va A.Generalova³ kabilar o'z ilmiy-tadqiqotlarini olib borganlar va asarlarini yaratganlar.

² Шумпетер Й.А. "Теория экономического развития. Капитализм, социализм и демократия" «Эксмо», 2008, с 483 .; Валента, Ф. Управление инновациями - М.: Прогресс, 1985. С 137 ; М.Е. Porter "On competition" McGraw-Hill, 1999, с 217; Друкер, Питер, Ф.Д76 Энциклопедия менеджмента.: Пер. с англ. — М.: Издательский дом "Вильямс", 2004. — 432 с.: ил. — Парал. тит. англ. 21-б ; Freeman C. Technology Policy and Economic Performance.Lesson from Japan: Printer Publishers, 1987. Page-31; Metcalfe S. The Economic Foundation of Technology Policy: Ecivilibrium and Evolutionary Perspective//Handbook of the Economics of Innovation and Technical Change / P. Stoneman (ed.). L.: Blackwell, 1995. Page-409; H. Etkowitz, L. LeydesdorffResearch Policy 29 2000 page. 115; Financing innovation activity in the EU, US and Japan: a comparison by Professor Ruth Taplin, 2012; Garfield, E. The evolution of the Science Citation Index. Int. Microbiol. **2007**, 10, 65–69.; Wangchuk, P. (2021). Common types of Crowdfunding Models, Related Concepts and Its Impact on Business: A Brief Literature Review. *Asian Journal of Economics, Business and Accounting*.; Guan, L. (2016). A short literature review on reward-based crowdfunding. *2016 13th International Conference on Service Systems and Service Management (ICSSSM)*, 1-4.; Папаскуя, Г.Т. (2021). Crowdfunding: The Concept, Types and Risks. *Actual Problems of Russian Law*.; Vedantam, L. (2016). Toward a Typology of Crowdfunding Motivations. ;Pierrakis, Y., & Collins, L. (2013). Crowdfunding: A New Innovative Model of Providing Funding to Projects and Businesses. *IRPN: Innovation & Entrepreneurship (Topic)*.; Davies R. The Statue of Liberty and America's Crowdfunding Pioneer //BBC News Magazine. – 2013.

³Орехов А.М. Методы экономических исследований: учебн. пособие. — М.: ИНФРА-М, 2009. — 392 с; Ионов М.Инновационная сфера:состояние и перспективы//Экономист 1993.№10-С.62-67; Методология и методы научных исследований в экономике и менеджменте .Учебное пособие Российский экономический университет имени г. в. Плеханова Н.Б.Завьялова,А.Н.Головина, Москва – Екатеринбург 2014, стр-22; Уткин Э.А.,Морозова Н.И. Инновационный

Mamlakatimizda innovatsion faoliyatni rivojlantirish va innovatsion boshqaruv tizimini tashkil qilishni o'rganish bo'yicha Sh.N.Zaynutdinov, A.M.Kadirov, S.S.Gulyamov, R.H.Ayupov, R.I.Nurimbetov, Sh.I. Otajonov, N.Q.Yo'ldoshev, B.N.Navruz-zoda, A.E. Norov, G.D.Xasanova, mintaqa tarkibiy iqtisodiyotidagi tarkibiy o'zgarishlar, prognozlashning metodologik muammolari Sh.X.Nazarov, B.Ruzmetov, A.M.Sodiqov, A.Soliev, N.To'xliiev, A.A.Qayumov, A.M.Qodirov, S.V.Chepel, F.T.Egamberdiev, oliy ta'lim muassasalarida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish muammolarini A.B.Nizamov, T.Z. Teshaboev, D.Sh.Yavmutov, A.CH.Boboyev, Sh.A.Raxmatov⁴ va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot olib borganlar.

Ta'kidlash lozimki, ushbu iqtisodchi olimlarning ilmiy asarlarida mintaqa iqtisodiy rivojlanishida korxonalarining innovatsion faoliyatni takomillashtirishning ilmiy-uslubiy va amaliy jihatlari qisman o'z aksini topgan. Respublikamizda mintaqa ilmiy-texnik rivojlanishida OTMlarining rolini oshirish bilan bog'liq tadqiqotlar yetarli darajada emasligi mazkur mavzuda chuqur ilmiy-uslubiy izlanishlarni amalga oshirishni taqozo etadi.

менеджмент.-М.-АКАЛИС, 1996-С.192; Дынкин А. А., Иванова Н. И. Инновационная экономика. // М.: Наука — 2-е издание — 2004.; Дынкин А. А., Иванова Н. И. Инновационная экономика. // М.: Наука — 2-е издание — 2004.; Мазилев Е. А. Зарубежный опыт стимулирования инновационной деятельности в промышленном секторе // Молодой ученый. — 2014.; Сергеев В. М., Алексеев Е. С., Нечаев В. Д. Типология моделей инновационного развития // Полития. — 2008.; Меркушева, А. Е. Анализ мирового опыта поддержки инновационной деятельности / А. Е. Меркушева. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2017.; Игнатов Игорь Игоревич Роль Акта Бэя-Доула (Bayh-Dole Act-1980) в трансфере научных знаний и технологий из американских университетов в корпоративный сектор: итоги тридцатилетнего пути // Управление наукой и наукометрия. 2012. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/rol-akta-beya-doula-bayh-dole-act-1980-v-transfere-nauchnyh-znaniy-i-tehnologiy-iz-amerikanskikh-universitetov-v-korporativnyy-sektor-itogi>; Грищенко К.С., Дьяков И.И., Третьяк Н.А. Сущность инновационной среды вузов и методы её оценки // Московский экономический журнал. 2017. № 2. [Электронный ресурс]. URL: <http://qje.su/innovatsii-i-modernizatsiya/moskovskij-ekonomicheskij10.25136/2409-8736.2018.1.25491> Современное образование, 2018 - 1 32 zhurnal-2-2017-78; Бусыгин, Д.Ю. Особенности оценки интеллектуального капитала в экономике знаний / Д.Ю. Бусыгин, А.Б. Мискевич // ; Balykhin, M., & Generalova, A.V. (2015). Crowdfunding as a platform for supporting research and development. *Sociological studies*, 57-61.

⁴ Зайнутдинов Ш.Н. Инновационный менеджмент.-Т.: Академия, 2006-С.267; А.М.Кадыров “Формирование национальной инновационной системы в условиях углубления экономических реформ. Актуальные проблемы развития инновационной деятельности. Сборник научных трудов международной конференции.-Т.:2008.С.19-21.; С.С. Гулямов, Р.Х. Аюпов. Ракамли иктисодиёт ва электрон тижорат асослари. Т.: ТМИ, “Иктисод-Молия” нашриёти, 2020, 54-65 бет.; Нуриббетов Р.И. “Университет 3.0 модели ва таълим сифатини таъминлаш масалалари” номли ўқув-методик қўланма. Тошкент-2020.; Отажонов Ш.И. Инновация фаолияти инфратузилмасини бошқаришнинг ташкилий-иктисодий механизмлари самарадорлигини ошириш. Ихтисослик: 08.00.13-“Менежмент”.-и.ф.д. (Doctor of Science) даражасини олиш учун тайёрланган диссертация автореферати. Тошкент архитектура-курулиш институти.-Тошкент,2018.; Н.Қ.Йўлдошев, Ш.А. Мирсаидова, Е.Д.Голдман “Инновацион менежмент” Тошкент-2011 й. 8-6; Навруз-Зода Б.Н. Инновационный человеческий капитала как фактор повышения конкурентоспособности на моноуровне. В книге:Наука, инновации, общество в условиях цифровой экономики: монография / Под общ. ред. Г. Ю. Гуляева — Пенза: МЦНС «Наука и Просвещение». —2021. —188 с. С:112-122. ; Норов А.Э. “Ўзбекистонда инновацион менежмент тамойиллари асосида илмий даражали кадрлар тайёрлаш методологиясини такомиллаштириш”, Ихтисослик: 08.00.13 – Менежмент-и.ф.д.(DSc) даражасини олиш учун тайёрланган автореферат.; Хасанова Г.Д. Саноат корхоналари инновация фаолияти самарадорлигини ошириш. Ихтисослик: 08.00.04-“Микроиктисодиёт”.-и.ф.н. (PhD) даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Бухоро Давлат университети.-Тошкент,2006.; Назаров Ш.Х. Совершенствование методологических основ повышения конкурентоспособности регионов Узбекистана. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. -Т.:2016. -С. 94; Рuzметов Б. Комплексное развитие региона в условиях углубления экономических реформ. Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора экономических наук. – Т.: 1998. -С. 70; Содиков А.М. Основы регионального развития: теория, методология, практика. Монография. – Т.: IQTISOD -MOLIYA, 2005. -С. 280; Солиев А.С. Иктисодий география, назария ва амалиёт. Монография. –Т.:”Камалак”, 2013.; То'хлиев Н., Холматов Н., Ermamatov Sh., Haqberdiev Q. “O'zbekiston iqtisodiyoti”, Darslik, Toshkent, “O'zbekiston”, 2018.; Каюмов А.А., Юдаков А.А. Оценка городского расселения с помощью статистико-математического анализа. // Материалы республиканской научно-практической конференции «Статистика и её применение». -Т.: 2012. С.218-220; Кадыров А.М., Ахмедиева А.Т. Методологические подходы к анализу стратегии социально-экономического развития региона. // Макроэкономические и региональные аспекты моделирования устойчивого экономического роста. Форум экономистов Узбекистана. Т.: 2010. С.147-151; Чепель С.В. Системный анализ и моделирование перспектив устойчивого развития национальной экономики Узбекистана. Монография. –Т.: IFMR, 2014. -С. 316; Эгамбердиев Ф.Т. Совершенствование структуры производства на внутрирегиональном уровне // Молодой ученый. -2016. -№21-1. -С.61-63.; Низамов А.Б., “Олий таълим муассасаларида инновацион тadbirkorlik фаолиятини ривожлантириш” Ўқув қўланма. Тошкент 2020 й.; Тешабоев Т.З. “Олий ўқув юрлариди инновацион фаолиятини такомиллаштириш йўллари” Ихтисослик: 08.00.13 – Менежмент-и.ф.д.(PhD) даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Тошкент Давлат Иқтисодиёт Университети-2009.; Явмутов Д.Ш.“Олий таълимнинг замонавий тенденциялари ва унда раҳбар кадрларнинг роли”:монография,-Бухоро: “Sadriddin Salim Vuxoriy” Durdona nashriyoti 2020 yil, 120 b.; А.Ч.Бобоев “Иқтисодий география ва экология” дарслик, Бухоро: “Умид” нашриёти, Бухоро 2023. 315 б.; Рахматов Ш.А. “Олий таълим муассасаларининг инновацион тadbirkorlik фаолиятини такомиллаштириш” Ихтисослик: 08.00.13 – Менежмент-и.ф.д.(PhD) даражасини олиш учун тайёрланган диссертация. Бухоро мухандислик-технология институти-2022.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya ishi Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq 610170-EPP-1-2019-1-ES-EPPKA2-CBHE-JP ELBA "Markaziy Osiyoda "BigData Intelligent Analysis" bo'yicha oquv va ilmiy markazlarni tashkil qilish va kurslarni ishlab chiqish" mavzusidagi (2020-2022 yy) amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mintqa oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatning mazmun-mohiyatini ochib berish, innovasion jarayon bosqichlarini o'ziga xos jihatlarini asoslash;

OTMLar ilmiy va innovasion faoliyati samaradorligini baholash metodikasini takomillashtirish;

Zarafshon iqtisodiy mintaqasining ilmiy-texnikaviy salohiyati va innovasion rivojlanish amaliyotini tahlil qilish;

Zarafshon iqtisodiy mintaqasi texnika yo'nalishidagi OTMLar ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;

subyektlar ilmiy-innovasion faoliyati samaradorligini baholash metodikasi asosida Zarafshon iqtisodiy mintaqasi texnika yo'nalishi OTMLar faoliyatini tahlil qilish;

OTMLarda ilmiy-innovasion faoliyatni rivojlantirish uchun hudud-larda amalga oshirilishi zarur strategik yo'nalishlar, OTMLarning mavjud mintaqaviy innovasion infratuzilmadan foydalanish yo'nalishlarini takomillashtirish;

mintqa oliy ta'lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obekti sifatida Zarafshon iqtisodiy mintaqasining ilmiy-texnikaviy salohiyati va texnika yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyati olingan.

Tadqiqotning predmeti bo'lib, oliy ta'lim muassasalarining ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatini tashkil etish bilan bog'liq tashkiliy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda ilmiy abstraksiyalash, empirik tanlab tadqiq qilish, qiyosiy tahlil, tanlama kuzatuv, korrelyasion va regression tahlil, iqtisodiy-matematik modellashtirish, statistik ma'lumotlarni guruhlash, progozlash kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

mintqa oliy ta'lim muassasalari xususiyatlariga ko'ra ilmiy hajmdor va innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "spin-off" kompaniyalarini tuzish va moliyalashtirish tartibi "Crowd-decision orqali crowd-funding"ga ko'ra takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi asoslangan;

texnologik, marketing va tashkiliy innovasiyalar xarajatlariga ko'ra ilmiy-texnikaviy salohiyat va innovasiyalar rivojlanishining Zarafshon iqtisodiy

mintaqasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulotiga ta'sirini baholash tasodifiy effektlar yondashuvi (uslubiyoti) taklif etilgan;

Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida yalpi hududiy mahsulot, ITTKI xodimlari, xarajatlar va innovasiyalarga xarajatlarning 2027 yilgacha bo'lgan davrga oddiy va progressiv darajalari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan;

subyektlar ilmiy-innovasion faoliyatini baholash uslubiyotiga yondashuv ilmiy-innovasion faoliyatni "salohiyat, natija va samaradorlik" guruhlariga, innovasion tadbirkorlikka ko'ra alohida va sinergetik ravishda baholash asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

"yangilik", "innovasiya" tushunchalariga mualliflik ta'rifi berilgan, innovasion jarayonning bosqichlari taklif etilgan;

salohiyat, natija va ular nisbatidan kelib chiqadigan samaradorlikni baholash yondashuviga ko'ra Zarafshon iqtisodiy mintaqasida faoliyat yuritayotgan oliy ta'lim muassasalariga samaradorligini oshirish yuzasidan tavsiyalar asoslangan;

ilmiy-innovasion faoliyatni rivojlantirish uchun mavjud mintaqaviy innovasion infratuzilmadan samarali foydalanish va hudud ma'muriyati-ning strategik tashabbuslari bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi foydalanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat statistika agentligi, Zarafshon iqtisodiy mintaqasi texnika yo'nalishidagi OTMning reyting ko'rsatkichlari va so'rovnomaning ma'lumotlaridan foydalanilganligi hamda olingan natijalar vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishda ilgari surilgan ilmiy-nazariy tavsiyalar oliy ta'lim tizimida ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga hamda sohaga oid ilmiy-tadqiqot ishlarining nazariy asoslarini boyitishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotda olingan natijalar innovasiya faoliyatini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini ishlab chiqishda hamda oliy ta'lim muassasalarida "Innovasion menejment", "Innovasion iqtisodiyot", "Mintaqa iqtisodiyoti", "Raqamli iqtisodiyot", "Tadqiqot usullari va ko'nikmalari" fanlari o'quv dasturlarini takomillashtirish va ta'lim jarayonida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Mintaqa oliy ta'lim muassasalari ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatini rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalari asosida:

mintaqa oliy ta'lim muassasalari xususiyatlariga ko'ra ilmiy hajmdor va innovasion mahsulotlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "spin-off" kompaniyalarini tuzish va moliyalashtirish tartibi "Crowd-decision orqali crowd-funding"ga ko'ra takomillashtirishning maqsadga muvofiqligi bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovasiyalar vazirligi tomonidan

ma'qullangan holda Samarqand davlat arxitektura-qurilish universitetining innovasion faoliyatini muvofiqlashtirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 28 avgustdagi 4/17-1-1-2-3076-sonli ma'lumotnomasi). Taklif oliy ta'lim muassasasida amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish va tijoratlashtirish ko'lamini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalar xarajatlariga ko'ra ilmiy-texnikaviy salohiyat va innovatsiyalar rivojlanishining Zarafshon iqtisodiy mintaqasi bo'yicha yalpi hududiy mahsulotiga ta'sirini baholash tasodifiy effektlar yondashuvi (uslubiyoti) bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 21 fevraldagi "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida" PF-37-son Farmonida belgilangan "Ilmiy va innovatsion faoliyatni amalga oshiruvchi tashkilotlar faoliyatini muvofiqlashtirish va ularni qo'llab-quvvatlashning tubdan yangi tizimini joriy etish" qaror loyihasini ishlab chiqishda hamda Buxoro muhandislik-texnologiya instituti va Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Samarqand filialini rivojlantirish strategiyalari, uzoq-qisqa muddatli dasturlarini ishlab chiqishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 28 avgustdagi 4/17-1-1-2-3076-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif ilmiy-texnikaviy salohiyat va innovatsiyalarga ko'ra oliy ta'lim muassasalarining texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalar natijadorligini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

Buxoro, Samarqand va Navoiy viloyatlarida yalpi hududiy mahsulot, ITTKI xodimlari, xarajatlar va innovatsiyalarga xarajatlarning 2027 yilgacha bo'lgan davrga oddiy va progressiv darajalari bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan 2022 yil 7 iyuldagi PF-161-son "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida"gi farmonda tasdiqlangan 2-ilova "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini amalga oshirishning maqsadli ko'rsatkichlari"ni ishlab chiqishda foydalangan hamda Buxoro muhandislik texnologiya instituti faoliyatiga joriy qilingan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 28 avgustdagi 4/17-1-1-2-3076-sonli ma'lumotnomasi). Taklif ichki imkoniyatlardan samarali foydalanish va maqsadli chora-tadbirlarni tashkil qilishga ko'ra istiqbolda ilmiy faoliyat natijalarining yalpi hududiy mahsulot hajmiga ijobiy ta'sirini oshirishga muayyan darajada xizmat qilgan;

subyektlar ilmiy-innovatsion faoliyatini baholash uslubiyotiga yondashuv ilmiy-innovatsion faoliyatni "salohiyat, natija va samaradorlik" guruhlariga, innovatsion tadbirkorlikka ko'ra alohida va sinergetik ravishda baxolash asosida takomillashtirish bo'yicha taklif O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 4 martdagi 128-son "O'zbekiston Respublikasining

innovatsion rivojlanish strategiyasini 2024-2025 yillarda amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ilovasining 2-bo'lim 8-bandiga kiritilgan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan "Ilmiy tashkilotlarda boshqaruv va ilmiy faoliyat samaradorligini oshirishda ularni modernizatsiya qilishning namunaviy tizimi"ni ishlab chiqishda hamda "TIQXMMI" MTU Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish institutida innovatsion faoliyatini muvofiqlashtirishda foydalanilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024 yil 28 avgustdagi 4/17-1-1-2-3076-sonli ma'lumotnomasi) Mazkur taklif oliy ta'lim muassasalari tuzilmalari darajasida ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini baholash imkonini kengaytirishga muayyan darajada xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Tadqiqot natijalari jami 14 ta, jumladan 12 ta xalqaro va 2 respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 22 ta ilmiy-uslubiy ish, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestasiya komissiyasining doktorlik dissertasiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, jumladan 3 ta respublika va 3 ta xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 135 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti shakllantirilgan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarining sinovdan o‘tganligi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Mintaqa oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlanib, unda oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatning mazmuni va iqtisodiyotni modernizatsiyalashdagi ahamiyati, rivojlangan xorijiy malakatlar oliy ta‘lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovatsiyalarni moliyalashtirish manbalari va shakllari, oliy ta‘lim muassasalari ilmiy-tadqiqot va innovatsion faolligini baholashning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari yoritilgan.

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarini chuqur o‘rganish natijalaridan kelib chiqib mamlakatning va mintaqalarning iqtisodiyotini rivojlantirishning hozirgi bosqichida ilmiy va innovatsion rivojlanishning to‘rtta modelini ajratib ko‘rsatildi: Evro-Atlantika, Sharqiy Osiyo, Alternativ, Uch spiralli modeli. Keltirib o‘tilgan barcha modellarning birortasi ham mintaqalar iqtisodiyotini rivojlantirishning barcha jabhalariga mos kelavermasligi sababli, ilm-fan salohiyati potensialini inobatga olgan holda, O‘zbekistonda ulardan Sharqiy Osiyo, Alternativ modellari qorishmasidan foydalanish kerakligi asoslab berildi.

Ma‘lumki, OTMlarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faolligini baholashning mavjud usullari nafaqat baholash sohalarida, balki qo‘llaniladigan mezonlar, ko‘rsatkichlar va vositalarda ham sezilarli farqlar bilan tavsiflanadi. Vaholanki, ilmiy-innovatsion faollikka to‘g‘ri baho berish, unga ta‘sir etuvchi barcha omillarni har tomonlama ob‘yektiv baholash va oxir-oqibatda samarali, dalillarga asoslangan qarorlarni qabul qilishga shart-sharoit yaratadi. Global yoki milliy darajalarda ilmiy-innovatsion faoliyatga baho berishning ko‘pdan-ko‘p reytinglarini hamda OTMlar ilmiy-innovatsion faoliyatiga baho berishning mualliflik metodikalarining kamchiliklarini bartaraf etish uchun “Subyektlar ilmiy-innovatsion faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari tizimi” metodikasi asosida salohiyat, natija va ularning nisbatidan kelib chiqadigan baholash yondashuvi taklif etildi. Ushbu yondashuv 3 ta tizimdan iborat ko‘rsatkichlardan tashkil topadi (1-jadval): 1-tizim ilmiy-innovatsion faoliyat natijalari ko‘rsatkichlari deb nomlanadi va jami 20 ta ko‘rsatkichga baho berishga bag‘ishlanadi (NAT_i); 2-tizim ilmiy-innovatsion salohiyat ko‘rsatkichlari deb nomlanadi va hisoblanish darajasiga qarab 6 ta (alohida olim yoki professor-o‘qituvchiga baho berilsa), 9 ta (OTM va ITMlarga baho berishda) va 12 ta (agar baholash uchun hudud, mintaq va mamlakat ko‘rsatkichlari qabul qilinsa) ko‘rsatkichdan iborat bo‘ladi (SAL_j); 3-tizim ko‘rsatkichlari esa, ilmiy-innovatsion faoliyatning samaradorligi ko‘rsatkichlari deb yuritiladi va 1-tizimning alohida olingan ko‘rsatkichlarini 2-tizim alohida ko‘rsatkichlariga bo‘lish orqali topiladi (SAM_{ij}).

“Subyektlar ilmiy-innovatsion faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari tizimi” metodikasi asosida salohiyat, natija va ularning nisbatidan kelib chiqadigan samaradorlikni baholash yondashuvi⁵

Ko‘rsatkichlar tizimi	Hisoblanish darajasi			
	Shaxs (professor-o‘qituvchi, tadqiqotchi, ilmiy xodim)	OTM	ITM	Hudud, mintaq, mamlakat
1-natijalar tizimi ko‘rsatkichlari	$SUMNAT^n = \sum_{i=1}^{20} \frac{NAT_i^n}{NAT_{(i)etalon}} \cdot 100$ (1)			
2-salohiyat tizimi ko‘rsatkichlari	$SUMSAL^n = \sum_{j=1}^6 \frac{SAL_j^n}{SAL_{(j)etalon}} \cdot 100$ (2)	$SUMSAL^n = \sum_{j=1}^9 \frac{SAL_j^n}{SAL_{(j)etalon}} \cdot 100$ (3)	$SUMSAL^n = \sum_{j=1}^{12} \frac{SAL_j^n}{SAL_{(j)etalon}} \cdot 100$ (4)	
3-samaradorlik tizimi ko‘rsatkichlari, Sam_{ij}	$SUMSAM = \sum_{i=1, j=1}^{i=20, j=6} \frac{NAT_i^n}{SAL_j^n \cdot SAL_{(i)etalon}} \cdot 100$ (5)	$SUMSAM = \sum_{i=1, j=1}^{i=20, j=9} \frac{NAT_i^n}{SAL_j^n \cdot SAL_{(i)etalon}} \cdot 100$ (6)		$SUMSAM = \sum_{i=1, j=1}^{i=20, j=12} \frac{NAT_i^n}{SAL_j^n \cdot SAL_{(i)etalon}} \cdot 100$ (7)

Bu yerda:

SUMNATⁿ-natijalar tizimi ko‘rsatkichi

NAT_iⁿ-faoliyati o‘rganilayotgan “n”subyektning “i” natija ko‘rsatkichi

NAT_{(i)etalon}- “i” natijaning etalon ko‘rsatkichi (tegishli ko‘rsatkichning 3 ta eng yuqori miqdorlarining o‘rtacha arifmetigi orqali aniqlanadi va etalon ko‘rsatkich 100 ballga teng qilib olinadi.)

SUMSALⁿ- salohiyat tizimi ko‘rsatkichi

SAL_jⁿ-faoliyati o‘rganilayotgan “n”subyektning “j”salohiyat ko‘rsatkichi

SAL_{(j)etalon}- “j” salohiyatning etalon ko‘rsatkichi((tegishli ko‘rsatkichning 3 ta eng yuqori miqdorlarining o‘rtacha arifmetigi orqali aniqlanadi va etalon ko‘rsatkich 100 ballga teng qilib olinadi.))

SUMSAM- ilmiy-innovatsion samaradorlik tizimi ko‘rsatkichi

Sub‘yektlarning ilmiy-innovatsion faoliyati samaradorligi ko‘rsatkichi alohida olingan shaxs uchun ham, alohida OTM va ITM uchun ham, hudud, mintaq uchun ham, mamlakat uchun ham hisoblashga mo‘ljallangan. Bu ko‘rsatkichni hisoblashning shartli 6 qadami dissertatsiya ishida izohlangan.

Baholash yondashuvi bo‘yicha ko‘rsatkichlar tahlili natijalari OTMlarning har bir tizim bo‘yicha pozitsiyasini belgilab beradi. (2-jadval)

⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

“Subyektlar ilmiy-innovatsion faoliyatini baholash ko‘rsatkichlari tizimi” metodikasi asosida salohiyat, natija va ularning nisbatidan kelib chiqadigan samaradorlik tizimi orqali baholash yondashuvi asosida pozisiyalash⁶

t/r	Nomi	Mezonlari	Kategoriya
1	Liderlar	100+	A
2	Liderga ergashuvchilar	75-100	B
3	O‘rtacha	50-75	C
4	Qoloq	25-50	D
5	Autsayderlar	0-25	E

Fikrimizcha, biz tomonimizdan taklif etilayotgan yondashuv, birinchi navbatda, OTM innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan boshqaruv qarorlarini qabul qiladigan rahbariyat va xodimlar uchun mo‘ljallangan. Ilmiy-innovatsion faoliyati o‘rganilgan texnika yo‘nalishidagi OTMlardan BuxMTI va BuxTRB lider, NavDKTU, SamDAQU, TATU Samarqand filiali liderga ergashuvchi pozitsiyasida ekanligi aniqlangan. Shuningdek, ushbu OTMlarning o‘z pozitsiyasini yaxshilash bo‘yicha ilmiy tavsiyalar muassasalar rahbariyatiga taqdim etildi.

Dissertatsiya ishining **“Zarafshon iqtisodiy mintaqasi va texnika yo‘nalishidagi OTMlar ilmiy-texnikaviy salohiyati tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida hududlar va OTMlarning ilmiy-texnikaviy salohiyati va innovatsion rivojlanishiga ta’sir etuvchi omillar asosida ko‘p omilli ekonometrik modellar tuzilgan. Modelni turli testlar orqali tekshirib statistik ahamiyatligi aniqlangan, kelgusi davrlarga prognozlash amalga oshirilgan. Ilmiy-innovatsion faoliyat natijalarini tijoratlashtirish orqali ularni muvaffaqiyatli biznesga aylantirish iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va ilmiy yondashuv asosida to‘g‘ri qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Tadqiqotda Zarafshon iqtisodiy mintaqasi ilmiy-texnikaviy salohiyati va innovatsiyalar rivojlanishining asosiy muammolari chuqur o‘rganishga harakat qilindi. Tadqiqotda Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlarining 2012-2022 yillar davomidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligidan olingan, ikkilamchi (secondary source data) ma’lumotlardan foydalanildi. Ma’lumotlar panel shaklida bo‘lib 11 yillik kuzatuvlarni uchta viloyat orasida tahlillar olib borildi.(1-rasm) Tadqiqotning o‘zgaruvchilari sifatida quyidagilar olindi:

y- YaHM (bog‘liq o‘zgaruvchi)

Mustaqil o‘zgaruvchilar sifatida esa:

x_1 - ITTKI xodimlari soni

x_2 -ITTKI ishlanmalariga jami xarajatlar hajmi

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

x₃. Texnologik marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar hajmi


Tadqiqotning asosiy maqsadi Zarafshon iqtisodiy mintaqasi ilmiy-texnikaviy salohiyati va innovatsiyalar rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlar tahlil qilishdan iborat. Ekonometrik tahlil jarayonida STATA 17.0 dasturidan foydalanilgan bo'lib, Pearson juft korrelatsiya testi, normal taqsimot testi, dinamik o'zgarishlar chiziqli grafiqi, OLS, robust, yig'ma (pooled), tasodifiy ta'sir (random effect), qat'iy ta'sir (fixed effect), Hausman test, Breusch va Pagan, Lagrangian multiplikator testi kabi baholashlardan foydalanildi.

Buxoro, Navoiy va Samarqand viloyatlarida ilmiy-texnikaviy salohiyati va innovatsiyalar rivojlanishini quyidagi model tavsiya qilinishi ilmiy isbotlandi:

Tasodifiy effektlar modeli:

$$YaHM_{random} = 19752 \cdot ITTKI_{xodimlari} + 246 \cdot ITTKIga_xarajatlar + 1.565 \cdot Innovatsiyaga_xarajatlar - 13225818$$

Hisoblab topilgan natijalariga ko'ra hududlarda YaHMning hajmining oshishiga ITTKI xodimlari soni o'zgaruvchisi yuqori statistik ahamiyatga ega ($p < 0,001$), bu YaHM bog'liq o'zgaruvchisi bilan kuchli ijobiy munosabatni ko'rsatadi. ITTKI xodimlar sonini, ITTKIga va innovatsiyalarga xarajatlarni bir birlikka oshishi YaHM hajmini tegishli tartibda 19752 birlikka, 246 birlikka, 1,56 birlikka oshiradi.



1-rasm. YaIM hajmining viloyatlar misolidagi chiziqli munosabatlari⁷


Oliy ta'lim muassasalarning ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyati samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish maqsadida Zarafshon iqtisodiy mintaqasi texnika yo'nalishidagi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti tanlab olingan. OTMlarning 502 nafar professor-

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma'lumotlari asosida tuzildi

o'qituvchilari va rahbar-xodimlarining 24 ta savoldan iborat ijtimoiy so'rovnoma natijalari o'rganildi. Respondentlarning 19,1%i tadqiqotchilar, 62,5 %i professor-o'qituvchilar, 4,8 %i quyi bo'g'in rahbarlari, 13,2 %i o'rta bo'g'in rahbarlari, 0,4 %i yuqori bo'g'in rahbarlari ovoz berishgan. So'rovnomada OTM ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyati samaradorligi "0"balidan "100" balgacha va samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi 7 ta omil tanlab olinib, ta'sir darajasi "0"balidan "10" balgacha baholandi. Tadqiqotning bog'liq o'zgaruvchilari sifatida ilmiy-tadqiqot samaradorligi (y_1) va innovatsion faoliyat samaradorligi (y_2) tanlandi. Ekonometrik tahlil parametrlarini aniqlash va gipotezalar tekshiruvi jarayonida qo'yilgan masalaning umumiy adekvatligi aniqlandi.


OTMlarning ilmiy-tadqiqot samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ta'siri aniqlanib quyidagi tenglamaga erishildi.

$$\widehat{y}_1 = 16.65 + 4.682 \times x_2 + 3.65 \times x_4 + 1.759 \times x_6$$



2-rasm. Ilmiy-tadqiqot samaradorligi va ilmiy kadrlar(x_2), moddiy-texnik bazani ta'minlash (x_4), ilmiy-tadqiqotlarda talabalar ishtiroki (x_6) o'rtasidagi bog'liqlik.⁸

Oddiy chiziqli regressiya modelidan yuqori tajribali, malakali ilmiy xodim sonining bir birlikka oshishi ilmiy-tadqiqot samaradorligini 4.682 birlikka, zamonaviy laboratoriya, kutubxonalar, hisoblash resurslari kabi moddiy-texnik baza bilan ta'minlashning bir birlikka oshishi ilmiy-tadqiqot samaradorligini 3.65 birlikka, ilmiy-tadqiqot ishlarida talabalar ishtirokini bir birlikka oshishi ilmiy-tadqiqot samaradorligini 1.759 birlikka oshiradi degan, xulosa qilish mumkin.(2-rasm)



3-rasm.OTMlarning innovatsion faoliyat samaradorligi va moliyalashtirish (z_1), moddiy-texnik bazani ta'minlash (z_4), ilmiy-tadqiqotlarda talabalar ishtiroki (z_6) o'rtasidagi bog'liqlik.⁹

⁸ Muallif ishlanmasi

OTMlarning innovatsion faoliyat samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar ta'siri aniqlanib quyidagi tenglamaga erishildi.

$$\widehat{y}_2 = 10.148 + 6.046 \times z_1 + 2.348 \times z_4 + 1.636 \times z_6$$

Oddiy chiziqli regressiya modelidan moliyalashtirish omilining (z_1) bir birlikka oshishi OTM innovatsion faoliyatining samaradorligini 6.046 birlikka, zamonaviy laboratoriya, kutubxonalar, hisoblash resurslari kabi moddiy-texnik baza bilan ta'minlashning (z_4) bir birlikka oshishi ilmiy-tadqiqot samaradorligini 2.348 birlikka, ilmiy-tadqiqot ishlarida talabalar ishtirokining (z_6) bir birlikka oshishi innovatsion faoliyat samaradorligini 1.636 birlikka oshiradi degan xulosa qilish mumkin.(3-rasm)

Biz tomondan ishlab chiqilgan salohiyat, natija va ularning nisbatidan kelib chiqadigan samaradorlik tizimi orqali baholash yondashuvi asosida Zarafshon iqtisodiy mintaqasi texnika yo'nalishidagi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, Buxoro tabiiy resurslarni boshqarish instituti, Samarqand davlat arxitektura - qurilish universiteti, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Samarqand filiali, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat samaradorligi tahlil qilindi. Ushbu baholash metodikasining asosiy maqsadi faoliyati o'rganilayotgan OTM ning o'zlarida mavjud salohiyatni ishga solgan holda yetarli ilmiy-tadqiqot va innovatsion natijalarga erisha olayotganiga xolisona baho berish bo'lib hisoblanadi.


Tahlil ma'lumotlaridan BuxTRBI yillar davomida publikatsion samaradorlik shartli guruh bo'yicha yetakchilikni mustahkamlab borgan, keyingi yillarda BuxTRBI misolida ushbu shartli guruhdagi ko'rsatkichlarning ayrimlari etalon ko'rsatkichlardan yuqori bo'lmasada, ammo unga juda-juda yaqin ekanligini ko'rishimiz mumkin. SHuningdek, samaradorlikni aniqlashning ushbu shartli guruhi bo'yicha boshqa tizimlarda yetakchilar qatorida bo'lgan BuxMTI, NavDKTU kabi OTMlarning ko'rsatkichlari ancha pasayganini ko'rish mumkin, masalan yuqorida nomlari tilga olingan OTMlar biror ko'rsatkich bo'yicha barqaror har yil yetakchilik faktlari ko'zga tashlanmaydi.

Ilmiy-tadqiqotlar samaradorligini shartli guruhi bo'yicha, oldingi tizim ko'rsatkichlari kabi keskin ustunlik namoyon qiluvchi OTM mavjud emas. NavDKTU muvafaqqiyatli himoya qilingan disseratsiyalar soni (PhD, DSc) ning professor-o'qituvchilar soniga nisbati ($SAM_{8,1}$) va milliy manbalardan olingan grantlar miqdorining professor-o'qituvchilar soniga nisbati ($SAM_{10,1}$) ko'rsatkichlari bo'yicha qariyb barcha yillarda favorit ekanligi ko'rinadi, ammo bu ustunlik ushbu shartli guruhidagi nisbiy liderlikni ko'rsatadi.

Innovatsion tadbirkorlik samaradorligi shartli guruhida TATU Samarqand filiali sezilarli darajada oldinga o'tib olgan. Bunday omadli yurish avvalambor, OTM ning salohiyatidan to'g'ri foydalanishda, ikkinchidan, OTM ning faoliyati profili ham ancha zamonaviy bo'lganligi natijasida yuzaga chiqqan. Ushbu shartli guruh bo'yicha NavDKTU 2-o'rinda. Xo'jalik shartnomalaridan tushumlar miqdorini professor-o'qituvchilar soniga nisbati ($SAM_{15,1}$) ko'rsatkichi bo'yicha

⁹ Muallif ishlanmasi

2019-yildan tashqari barcha yillarda, ixtiro, foydali model, sanoat namunalari va seleksiya yutuqlari uchun olingan patentlar sonining professor-o‘qituvchilarga nisbati (SAM_{13,1}) ko‘rsatkichi bo‘yicha esa oxirgi 4 yilda yetakchi bo‘lgan. Umuman olganda ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyat samaradorligi salohiyatning mavjudligi emas, balki undan oqilona foydalanish natijasida yuzaga kelar ekan.(4-rasm)



4-rasm. Zarafshon iqtisodiy mintaqasi texnika sohasidagi OTMLarda ilmiy-innovatsion samaradorlik ko‘rsatkichlari dinamikasi¹⁰

Dissertatsiya ishining “**Oliy ta’lim muassasalari ilmiy-tadqiqot va innovatsion faolligini oshirish vositasida Zarafshon iqtisodiy mintaqasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning istiqbollari**” deb nomlangan uchinchi bobida ko‘p omilli ekonometrik tahlil natijalarga asoslangan holda, mintaqaviy innovatsion infrastruktura va OTMLar integrasiyalashuvini takomillashtirish yo‘nalishlari taklif etildi. Zarafshon iqtisodiy mintaqasida faoliyat yurituvchi texnika OTMLarining ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatida kraudfandingli spin-offlardan foydalanish taklifini joriy qilish algoritmi ishlab chiqildi. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash natijasida mintaqqa iqtisodiyotini va OTMLar rivojlanish dinamikalari prognozlarini hisoblandi.

Oliy ta’lim muassasalari va ilmiy-tadqiqot markazlari tarixan yangi innovatsion g‘oyalar, ixtirolar va ishlanmalarning asosiy manbasi bo‘lib, har bir OTM maqsadi ilmiy-tadqiqot natijalarini muvaffaqiyatli biznesga aylantirish hisoblanadi. Olib borilgan tadqiqotlarimiz natijasida oliy ta’lim muassasalarida ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rivojlantirish maqsadida “Spin-off”¹¹ strukturasi joriy etishni maqsadga muvofiq degan xulosaga keldik. OTMLarda


¹⁰ Muallif ishlanmasi

¹¹ “Spin-off” – ingliz tilidan “mavjud bo‘lgan korxonadan sho‘ba korxonasini ajratib chiqarish”, deb tarjima qilinadi.

spin-off korxonalarini tashkil etish modeli ishlab chiqildi va tijoratlashtirishda kraudfandingli mexanizmdan foydalanish chora-tadbirlari ishlab chiqildi.(5-rasm)

Oliy ta'lim muassasalari negizida spin-off korxonalarini tashkil etish asosida ilmiy-tadqiqot va innovatsion natijalarni tijoratlashtirish uchun kraudfanding mexanizmlaridan foydalanishga doir chora-tadbirlar:

1. Kraudfanding shakli sifatida “Crowd-decision orqali crowd-funding” (“crowd-funding orqali crowd-decision), ya’ni “kraudfanding orqali jamoaviy qarorlar qabul qilish yoki aksincha” mexanizmi taklif etiladi.
2. Mas’uliyati cheklangan jamiyatni (MChJ) yaratish taklif etiladi, uning o‘ziga xos turi ishtirok etuvchi ta’sischi soniga bog‘liq bo‘lib, operasion samaradorlik va boshqaruv ravshanligini ta’minlash uchun ideal holda 50 kishidan oshmaydi;
3. Mablag‘ yig‘ish bo‘yicha harakatlar maxsus kraudfanding platformalari yoki tegishli muassasalarning (dissertasiya tadqiqot ob’yekti bo‘yicha 5 ta OTM) rasmiy veb-saytlari orqali amalga oshirilishi kerak, bu mablag‘ yig‘ishda shaffoflik va hisobdorlikni ta’minlaydi.



5-rasm. OTM negizida spin-off korxonalarini tashkil etish modeli.¹²

4. SMM targ‘iboti, shu jumladan maxsus YouTube kanallarini yaratish kengroq auditoriyani qamrab olish va qo‘llab-quvvatlash uchun ishlatilishi kerak. Kraudfanding tashabbuslari uchun onlayn alohida kanallarga o‘tishdan oldin, dastlab 5 ta OTMlarning mavjud ijtimoiy mediya tarmoqlari, YouTube kanallaridan foydalaniladi;

¹² Muallif ishlanmasi

5. Har qanday boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayonida ta'rischilarning ulushli ovoz berishiga ustivorlik beriladi. Ayniqsa, innovatsion menejerni tanlash, strategik qarorlar, rivojlanish istiqbollari, moliyani taqsimlash, marketing tadbirlarini amalga oshirish kabi muhim sohalarida shu usuldan foydalaniladi.

6. OTMlar spin-off korxonalarining dastlabki faoliyatini boshlashi uchun o'rin-joy, ofis, axborot resurslari, kommunikasion resurslar, moddiy resurslar va ehtiyot qismlar bilan ta'minlaydi, boshqaruv va tadbirkorlik ko'nikmalari bo'yicha maslahatlar bilan (bizning taklifimizga binoan 1 yillik shartnomalar imzolanishi kerak) qo'llab quvvatlaydi, keyinchalik ularning roli faqat ta'rischi sifatida saqlanib qoladi;

7. OTMlarda yaratilgan yangiliklar innovatsion ishlanmalarining intellektual mulk huquqini yangi spin-off korxonalariga lisenzion shartnomalar asosida o'tkazadi va tegishli mablag'larni oladi;

8. Kraudfanding tashabbusining boshqaruv tuzilmasi loyihaga yo'naltirilgan bo'lishi kerak, har bir loyihaning traektoriyasi va natijalarini belgilangan loyihalarni boshqarish tamoyillariga muvofiq mustaqil baholashni ta'minlaydi;

9. Shuningdek, strukturada xatarlarni boshqarish strategiyasi, manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejaları, taraqqiyotni kuzatish va muammolarni samarali hal qilish uchun doimiy baholash mexanizmlarini o'z ichiga olishi mumkin.

Ilmiy-tadqiqot va innovasion faoliyatni rag'batlantirish, samaradorlikni oshirish va yuqori rentabelli tarmoqlarni yaratish orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish va YaHMni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqotlar va ishlanmalar iqtisodiy o'sishning eng muhim omillaridan biri bo'lib, innovasiyalar, samaradorlikni oshirish va yuqori daromadli tarmoqlarni rivojlantirish orqali YaHMni sezilarli darajada oshiradi. Cheklangan ma'lumotlar va dinamik iqtisodiy sharoitlar kabi muammolarga qaramay, mintaqaviy rivojlanish uchun ilmiy-tadqiqot ishlaridan foydalanish muhim afzalliklarni beradi, tobora raqobatbardosh global bozorda rivojlanishga qodir ishonchli va barqaror iqtisodiyotni yaratadi.

Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni qo'llab - quvvatlash natijasida Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlari iqtisodiyoti va OTM rivojlanish dinamikalarini prognozlash amalga oshirilgan. Tadqiqot ishimizda prognoz ko'rsatkichlarini ikki darajaga ajratdik:

1-daraja. YaHMning mavjud 12 yillik ko'rsatkichlarga asoslangan oddiy prognoz ko'rsatkichlari;

2-daraja. YaHMning regression tahlil natijasida olingan progressiv prognoz ko'rsatkichlari.


1-daraja ko'rsatkichlari YaHM hajmining mavjud holatiga ko'ra prognozlashni anglatadi, 2-daraja progressiv prognoz ko'rsatkichlari viloyatlarda tadqiqot ishida 2.1 paragrafda ishlab chiqilgan regressiyaga asosan, ITTKIga xarajatlar yoki innovasiyalarga qilingan xarajatlar oshirilganda YaHM hajmining qanchaga o'zgarishini ko'rsatadi. Tadqiqot natijasi ITTKI bilan shug'ullanuvchi xodimlar sonini oshirish emas, balki kadrlar sifatini yaxshilashga qaratilgan tadbirlarni qo'llab-quvvatlaydi.

3-jadval

Buxoro, Samarqand, Navoiy viloyatlarida YaHM, ITTKI xodimlari,
ITTKIga xarajatlar, Innovatsiyalarga xarajatlarning 2027 yilgacha prognoz
ko'rsatkichlari.¹³

